



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

7/2024



7/2024

<https://buxdu.uz>

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 7, iyul

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoirra Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS****TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS*** ЛИНГВИСТИКА**

Babayarov M.X.	Sport jurnalisti va sport sharhlovchisining nutqidagi leksemalarning funksional-stilistik xususiyatlari	3
Ismailova S.N.	XX asr sayohatnomalarda contr-orientalizm tasviri (Ella Maillart “Turkistan solo” asari misolida)	6
Qilichova E.X.	Fizik terminlarning tavsifini takomillashtirish vazifalari	11
Yuldasheva D.M.	Особенности словообразования названий лекарственных растений в узбекском языке	15
Abdusamatova N.A.	Frazeologiya sohasining o‘zbek tilshunosligida shakllanishi, frazemalarning turlari va badiiy adabiyotda qo‘llanilishi (“Kuntug‘mish” dostoni misolida)	20
Сайидова Г.Ё.	Захириддин Мухаммад Бобур шеъриятида маънодош сўзларнинг лексик-семантик хусусияти	24
Allaberganova F.I.	Ingliz tilida attributiv so‘z birikmalarining an‘anaviy va kognitiv aspektlarda o‘rganilishi	31
Avazova M.S.	“Like” fe‘li ishtirokidagi frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga tarjimasini talqini	39
Kozieva I.K.	Vocabulary and meaning characteristics of Uzbek anthroponyms	44
Uraimova M.Q.	Jahon va o‘zbek tilshunosligida frazeologiya va frazeologizmlar tadqiqi	48
Xusinova Sh.X.	Ingliz va o‘zbek tillarida laqablarning jins kategoriyasi	52
Сайидова Г.Ё.	Захириддин Мухаммад Бобур шеъриятида шаклдош сўзларнинг лексик-семантик хусусияти	55
Oromova M.J.	“Ornitonim” LGM asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalarida salbiy ma‘no ifodalanishi	62
Hamroyeva Z. H.	Tibbiy fanlarni o‘rganishda xalqaro tillarning ahamiyati (Ingliz tili misolida)	67

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM ***
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Saidova R.B.	Zamonaviy o‘zbek adabiyotda she‘r va shoirlilik tuyumlari badiiy talqini	72
Bekova N.J., Ortiqova A.B.	Muxammas, uning janr xususiyatlari va taraqqiyoti	79
Xamidova M.A.	Bolalar uchun yozilgan asarlar tarjimasining pragmatik jihatlari	86
Xudoyberdiyeva A.A.	Dostonlarda ortiqchalik va tejamkorlik tamoyillari	92
Ashurov J.A.	Erle Stanley Gardner's ability to use legal phrases in his Perry Mason series	97
Raximova N.G.	Detektiv janri: asosiy unsurlar va mavzular xilma-xilligi	101
Yaxshiyeva Z.R.	“Tamburlane”(Temur) obrazi talqinlari: tarixiy haqiqat va	106

MUXAMMAS, UNING JANR XUSUSIYATLARI VA TARAQQIYOTI

Bekova Nazzora Jo'rayevna,

Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d.(DSc)

Ortiqova Aziza Bahriiddin qizi,

Buxoro davlat universiteti magistranti

azizaortiqova17@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti lirikasining yetakchi janri hisoblanuvchi musammatlar, xususan, muxammasning janriy belgilari, turlari atroflicha tahlil etiladi. Uning shakli xususiyatlari, g'oya va badiiyati, mavzu ko'lamining rang-barangli, uning adabiyotda shoirlar mahoratini ko'rsatishdagi ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, davrlar silsilasidagi taraqqiyoti davomida uchrovchi an'ana va yangilanishlar, muxammaslar orqali yuzaga keluvchi ijodiy raqobat ochib beriladi. Muxammasnafis shoirlar ijodidagi o'ziga xosliklar, ayniqsa, Alisher Navoiy she'riyatida muxammaslar takomili, Navoiyning muxammaschilik an'anasiga qo'shgan hissasi tahlil etigan. Bundan tashqari bu janrning hozirgi o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va rivoji haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: musammat, muxammas, tab'i xud muxammas, taxmis, hasbi hol muxammas, sayohatnoma muxammas.

МУХАММАС, ЕГО ЖАНРОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И РАЗВИТИЕ

Аннотация. В данной статье подробно анализируются мусамматы, которые считаются ведущим жанром узбекской классической литературной лирики, в частности, жанровая символика и виды мухаммас, его формальные особенности, идея и художественность, объём темы разнообразны, обсуждается её значение в проявлении мастерства поэтов в литературе. Также в ходе развития ряда периодов выявляется творческая конкуренция, происходящая посредством встречи традиций и новаций, нововведений. Проанализированы особенности творчества поэтов-мухаммаснафисов, особенности совершенствования Мухаммаса в поэзии Алишера Навои, а также вклад Навои в традицию Мухаммаса. Кроме того, представлена информация о месте и развитии этого жанра в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: мусаммат, мухаммас, таб'и худ мухаммас, тахмис, хасби хол мухаммас, саёхатнома мухаммас.

MUKHAMMAS, ITS GENRE CHARACTERISTICS AND DEVELOPMENT

Abstract. In this article, musammats, which are considered to be the leading genre of Uzbek classical literature lyrics, are analyzed in detail, in particular, the genre symbols and types of mukhammas. Its formal features, idea and artistry, the scope of the subject is diverse, and its importance in showing the skill of poets in literature is discussed. Also, during the development of the series of periods, the creative competition that occurs through the meeting traditions and innovations is revealed. The peculiarities of the work of Mukhammasnafis poets, especially the perfection of Mukhammas in Alisher Navoi's poetry, and Navoi's contribution to the Mukhammas tradition were analyzed. In addition, information is provided about the place and development of this genre in modern Uzbek literature.

Keywords: musammat, muxammas, tab'i xud muxammas, taxmis, hasbi hol muxammas, travelogue muxammas.

Kirish. Ma'lumki, Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida uzoq asrlar davomida lirika yetakchi tur sifatida hukm surib keldi. Salkam ming yillar davomida shoirlar o'z nazmida lirik turning rang-barang janrlaridan foydalanishga, dil dardini, orzu-umidlarini, hayotdan noroziligi, farovon hayot haqidagi shirin xayollarini shu lirik janrlarda sig'dirib kelishdi. Davrlar o'tishi, badiiy tafakkur olamining rivojlanishi, ijtimoiy sharoitning talab va taqozosi bilan lirik tur yana taraqqiy etdi, uning yangidan yangi janrlari, keng imkoniyatlari shakllanib bordi.

Xususan, Alisher Navoiy o'zbek mumtoz she'riyati tarixida musammatchilikni yuksak bosqichga ko'targan. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida ko'zga tashlanadigan lirik janrlardan biri muxammasdir.

Muxammas so'zi juda ko'p lug'atlarda deyarli bir xilda izohlanadi. Muxammas arabcha so'z bo'lib, beshlik degan ma'noni anglatadi. Bu jihatdan muxammas xamsa so'ziga yaqin turadi. Ya'ni, xamsa termini ham muxammas bilan bir o'zakdan yasalgan bo'lib, beshlik ma'nosini beradi.[1]

Asosiy qism. Janr ma'nosida ham bu ikkala adabiy termin o'rtasida yaqinlik mavjud. Muxammas har bandi besh misradan tashkil topgan. Lirikaning bir janri bo'lsa, xamsa dostonni o'z ichiga oluvchi epik asardir. Shuningdek, bu ikkala termin o'rtasida farqli tomonlar ham yo'q emas.

Muxammasning o'zbek adabiyotida mustaqil she'riy tizim sifatida qachon paydo bo'lganligini tasdiqlovchi aniq ma'lumotlar aniq emas. Alisher Navoiyga qadar yashab ijod etgan Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy kabi shoirlarning bizga ma'lum bo'lgan va nashr etilgan to'plamlarida muxammas namunalari uchratmadik. Bu janrga mansub asarlarning dastlabki namunalarini Alisher Navoiyning "Ilk devon" va "Xazoyin-ul maoniy" lirik kulliyotiga kiritilgan. Shunga asoslanib, o'zbek adabiyotida muxammas janrining shakllanishi Navoiy nomi bilan bog'liq degan xulosaga kelish mumkin.

Muxammas janri haqidagi nazariy fikrlar ayrim darslik va lug'atlarda o'rtaga tashlanadi, yo'l-yo'lakay masalaning u yoki bu tomoniga daxl qilinadi. Jumladan. H. Homidiy, Sh. Abdullayeva, S. Ibrohimovalarning "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati" asarida quyidagicha ta'riflanadi:

"Muxammas – besh misradan iborat bo'lgan she'r shakllaridan biri bo'lib, unda birinchi band misralarining hammasi o'zaro alohida qofiyalanib, qolgan bandlarning beshinchi misrasi bilan qofiyalanadi, ya'ni bu tartib quyidagichadir: a-a-a-a-a; b-b-b-b-a; d-d-d-d-a va hokazo".

Bu ta'rifda muxammasning qator xususiyatlari o'z aksini topgan. Biroq hali to'la emas. Ta'rifda mazkur janrning anchagina janriy xususiyatlari aytilmay qolgan. Chunonchi, muxammas oxirida shoir taxallusining keltirilishi, qofiyalanish tartibida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar to'g'risidagi fikrlar o'z aksini topmay qolgan. Taxmis haqida gap borganda taxallus taxmis uchun xosligi aytib o'tiladi, xolos.

Shuningdek, muxammas xususidagi ayrim fikrlar V.A. Abdullayev, professor F.K.Karimov, A.H.Hayitmetov, A.Hojiahmedov, T.Boboyev, R.Orzibekov va boshqalarning ishlarida ham ko'zga tashlanadi.[1]

Ammo yuqorida sanab o'tilgan ishlar muxammas janrini o'rganishga maxsus bag'ishlanmaganligi uchun masalani atroflicha yoritish mualliflar diqqat markazida turmaydi.

Muxammasning boshqa bir shakli taxmisdir. Ma'lumki, muxammas bir shoirning misralaridan tashkil topgan bo'lsa, adabiyotshunoslikda "tab'i xud", ya'ni "o'z tab'i" deb yuritiladi. Taxmisda esa bir so'z san'atkori boshqa bir shoirning o'ziga yoqqan, e'tiborini jalb qilgan, pishiq badiiy asar sifatida ko'pchilik tomonidan tan olingan g'azalni tanlaydi, undagi fikrni rivojlantiradi. Taxmis bog'lanayotgan g'azalning shakl tomonlari – qofiya, radif va hokazolar deyarli saqlab qolinadi. Taxmisning besh misradan iborat bandlaridan ikki misrasi boshqa shoirdan va qolgan uch satr muxammas bog'layotgan shoir tomonidan qo'shiladi. Bunday hollarda muxammasning umumiy hajmi taxmis qilinayotgan baytlar miqdori bilan bog'liq bo'ladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, masalan, yetti baytli g'azalga qilingan taxmis besh banddan iborat bo'lish hollari ham uchradi. Bundan tashqari, taxmis qilinayotgan g'azalning ayrim misralarini o'zgartirib qo'llash hollari ham ko'zga tashlanadi. Masalan, shoir Muqimiy Maxmurning o'n bir baytdan iborat bo'lgan Hapalak qishlog'i haqidagi g'azaliga bog'lagan muxammasida uch baytni tushirib qoldirgan va ayrim misralarni o'zgartirgan. Mana, o'sha muxammasdan bir band:

Chug'zi vayrona teshik, uylari so'roxi kamar,

G'ijn-bij tulkiyu kipritikon echkiemar,

O'tga qo'shniga chiqib, bir kechasi yo'lda tunar,

Tepada chiqsa kishi, undayu shunda ko'rinar,

Bir kapa ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.[2]

Muqimiy Maxmur g'azaliga taxmis qilar ekan, ancha so'z va iboralarni tahrirdan o'tkazgan, tojikcha so'zlarning o'zbekcha variantini qo'llagan, hatto ayrim misralarni o'zgartirib ham keltirgan. Masalan, Maxmurdagi "go'sh qil" o'rnida "eshiting", "g'azabkarda" o'rnida "jin urgan va boshqalar. Yuqorida keltirilgan parchada esa Maxmur misralari batamom o'zgartirilgan. Maxmurda:

Boru yo'q uylarini banda bayon gar qilsam,

Bir katak, ikki katak, uch olachuq, to'rt katalak.[3]

Ammo bunday yo'l tutish ham hamisha ijobiy ahamiyat kasb etmaydi. Ba'zan g'alizliklar tug'diradi, shoirning o'ziga xos uslubiga xalal beradi.

Taxmisdagi ayrim xususiyatlar, ya'ni boshqa bir shoir g'azali baytlarini aynan keltirish uni o'zbek mumtoz adabiyotida ko'zga tashlanib turadigan tatabbu, iqtibos, nazira, tazmin qilish kabi adbiy hodisalar bilan yaqinlashtiradi. Bular o'rtasidagi umumiylik bir shoirning xarakterli asarini, undagi ma'lum o'rinlarni rivojlantirish, to'ldirish, boyitish yoki fikr isboti tarzida kichik bir parcha, e'pizod keltirishda ko'rinadi. Bu adbiy janr va hodisalar o'rtasidagi farq esa, ular hajmining bir-biridan ajralib turishida namoyon bo'ladi. Agar eng kichik taxmis besh band – 25 misradan iborat bo'lsa, eng kichik tatabbu o'n satrdan tashkil topadi. Iqtibos va tazmindagi esa shoir o'ziga ma'qul bo'lgan detal tasviridan parcha sitata olish bilan cheklanishi mumkin. Shuni ham alohida qayd qilish kerakki, muxammas har qanday shoirning she'riga ham bitilmagan. Nafosat aholi orasida o'z ijodining pishiqligi va barkamolligi bilan tanilgan, she'riyat ixlosmandlari hurmatiga sazovor bo'lgan shoirgagina bu yuksak baxt nasib bo'lgan. Bir shoir boshqa bir shoirning g'azaliga muxammas bog'lash orqali o'zining o'sha adib ijodiga bo'lgan munosabatini bildirishga intilgan. Bu narsa ularning she'riyatda hamg'oya, hamfikr bo'lish uchun musobaqa qilishga, ular singari yetuk she'riy asarlar yozishga bel bog'laganidan darak beradi.

Ayni choqda, muxammas mahorat darajasini sinovdan o'tkazish mezoni vazifasini bajargan. XIX asr Buxoro adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakili Mujrim Obid Alisher Navoiy g'azaliga taxmis qilishga jazm etarkan, birinchidan, buyuk mutafakkir izdoshi uning ilg'or g'oyalari targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqadi. Ikkinchidan, ijod bobidagi tajribasini Navoiy g'azallariga javob aytish jarayonida tekshiradi, shuningdek, ustozini merosini targ'ib qilish bilan unga bo'lgan samimiyatini izhor etishga erishadi. Fikr dalili sifatida Alisher Navoiyning :

Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromijone topmadim.

Matlali g'azaliga Mujrim Obid qilgan taxmisidan bir band keltiraylik:

Olami foniya kulfatsiz makone topmadim,

G'ayri anduhu g'amu ohu fig'one topmadim,

Bir anisi shodu g'am shirin zabone topmadim,

Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromijone topmadim.[4]

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ushbu g'azalida o'zi yashagan zamonadan noroziligi, mehr ko'p ko'rguzib biron mehribon do'st topa olmaganidan shikoyatini aks ettirgan. Shunga hamohang ravishda Mujrim Obid XIX asr Buxorodagi ahvol Navoiy tasviridagidan qolishmasligini, xalq nochor ahvolini, shaxsiy kechinmalarini, anduhi, g'am, ohu-fig'onga to'lgan olamdan ranjiganligini, kulfatsiz makon topa olmaganligini yoritishga muvassar bo'ladi.

Muxammas janri shoirlarni bir-biriga mahkam bog'lovchi aloqa vositasi – ko'prik rolini ham o'ynaydi. O'zbek adabiyotining yirik vakili mavlono Muqimiyning Abdurahmon Jomiyning "Mekuni yo ne?" radifli g'azaliga taxmis qilganligi ilm ahliga ma'lum. Mazkur fakt yuqorida olg'a surgan fikrimizga yorqin misol bo'lishi bilan birga adabiyotlar o'rtasidagi adabiy aloqa, hamkorlikning ham keng tarqalgan ekanligini isbotlovchi ajoyib dalildir. Muxammas bog'lash shoir imkoniyatlari doirasini kengaytiradi. Shu vosita ko'magida keyingi asrlarda yashagan so'z san'atkorlari o'z ustozlari dahosidan bahramand bo'ladi, ular qoldirgan ijobiy va ilg'or bilimlarni egallash, don ova xalqchil fikrlarni so'nggi avlodlarga yetkazish imkoniga ega bo'lishadi. Shuningdek, muxammas bog'lash qardosh xalqlar adabiyoti xazinasidan bahramand bo'lish uchun ajoyib darcha ochadi. Bu fikrga guvoh sifatida fors-tojik adabiyotining zabardast vakillari Shayx Sa'diy, Xo'ja Hofiz, Kamol Xo'jandiy, Badriddin Hiloliy, Ozar klassik adabiyotining yetuk ijodkori Fuzuliy g'azallariga o'zbek mumtoz shoirlari bitishgan yuzlab muxammaslarni ko'rsatish mumkin.

O'zbek mumtoz ijodkorlari muxammaslari ko'zdan kechirilgan ekan, ularning bir xil shaklda, mavzuda qolib ketmaganligining guvohi bo'lamiz. Davrlar o'tishi, tafakkur olamidagi o'zgarishlar, ijtimoiy hayotdagi burilishlar boshqa poetic janrlar qatori muxammasning ham o'zgarishiga, yangiliklar qo'shilib, mukammallashib borishiga zamin hozirladi. Natijada muxammas shakliy va mazmun o'zgarishiga uchradi. G'azal zaminida vujudga kelgan muxammas janrining ilk namunalari ishq-muhabbat mavzusi yetakchi hisoblanadi. Shu jarayonda davr jabru-jafosi, zulmi, haqsizliklaridan shikoyat motivlari aks ettirilgan.

Alisher Navoiyning "Xazoyin-il maoniy" to'plamidan o'rin olgan muxammaslarning deyarli hammasi sevgi, sadoqat, vafo, o'zaro samimiyat kabi masalalarga bag'ishlangan. Jumladan, mana bu parchada ham shu holat ko'zga tashlanib turadi:

Ko'rguzib yuz, ko'nglima yuz ming jafomu qilmading?

Jism uyidin xasta jonimni jalomu qilmading?

Xotirimni ishq o'tiga mubtalomu qilmading?

Ishq o'tidin qismatim dardu balomu qilmading?

Dard birla xonumonimni qaromu qilmading? [5]

O'zbek adabiyoti tarixiy faktlari muxammas janri taraqqiyotidagi ana shu holatning XVII asrgacha davom etganligidan dalolat beradi.

XVII asrning iqtidorli shoiri Turdi Farog'iy ijodida muxammas yangicha mazmun kasb etdi, mavzu doirasi kengaydi. Ya'ni Turdi bu janr mavzulari olamiga satiric yo'nalishni olib kirdi. Davrning muhim jarohatlarini aks ettiruvchi muxammaslarida o'sha zamon amaldorlarini fosh etdi, ularni satira tig'i bilan savaladi. Bu jihatdan shoirning "Subhonqulivon to'g'risida hajviya" satirik muxammasi ahamiyatlidir. Turdi g'azab, nafrat to'lib toshgan misralarda el-yurt g'amini yemagan amaldorlarga qarata bunday deydi:

*Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
G'ash ila molin olib, qo'y madingizlar bitini,
Qamchilab dog' solib bo'yinga, tilib betini,
Yordingiz zahrasini ichidan olib o'tini,*

Bo'lmadi kam bu raiyat boshidin hech tayoq. [6]

Turdining zamondoshi bo'lmish shoir Boborahim Mashrab qalamida muxammas yanada takomillashdi, adabiyotning faol janriga aylandi. Mashrab ijodida muxammasning yangi tatabbu muxammas shakli vujudga keldi. Bu muxammas Alisher Navoiyning:

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otguncha uyqu kelmadi
Matlali g'azali ta'sirida yozilgan.*

XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan shoirlar ijodida muxammasdagi satiric va yumoristik mazmun takomillashib bordi. Ayniqsa, Maxmur ijodida bu narsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning "Qurama viloyati" va "Qosim beklar begi sifatida", "Domulla Atoiy Ashtiy hajrida", "Takabbur" sarlavhali muxammaslarida xalqning og'ir ahvoli, qishloqlarning xarobaligi, ruhoniylarning yaramasliklari ochib tashlanadi. Asar boshdan oxir satira ruhi bilan sug'orilgan. Maxmur o'z muxammaslarida mumtoz adabiyotda ko'p asrlardan buyon hukm surib kelayotgan "Shiru shakar" usulini ishga soladi. Ularni tojik va o'zbek tillari aralashmasidan tarkib toptiradi. "Qosim beklar begi sifatida" sarlavhasi muxammasida shoir birinchi bandni to'la o'zbek tilida, ikkinchi bandning esa to'rt misrasini tojik, beshinchi misrasini o'zbek tilida yaratadi.

XVII asrning ikkinchi yarmidan XIX asrgacha bo'lgan davrda muxammas, xususan, uning taxmis turi keng tarqalgan. Ayniqsa, Xorazm adabiy muhiti vakillari ijodida bu faolroq ko'zga tashlanadi. Bu davrda yaratilgan taxmislarning ko'pchiligi Alisher Navoiy va Fuzuliy kabi shoirlarning g'azallariga bitilgandir. Bunga sabab birinchidan, XVII-XIX asrlarda buyuk mutafakkirlarga izdoshlik adabiy an'ana tusiga kirganligi bo'lsa, ikkinchidan Navoiy va Fuzuliy kabi zabardast qalam sohiblari she'rlarining xalq ommasi didiga mosligi va keng tarqalganligidir. Bu davrlarda navoiyxonlik, fuzuliyxonlik maktablarining vujudga kelganligi ham fikrimiz isboti bo'la oladi.

Faktlarning guvohlik berishiga qaraganda, o'zbek adabiyotida muxammas janrida "ko'p va xo'p" ijod etgan san'atkor Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy hisoblanadi. U o'zining saksondan ortiq muxammaslari bilan bu janr taraqqiyotiga salmoqli ulush qo'sha olgan yetuk shoir sifatida e'zozlashga sazovordir.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida poeziyamiz Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlarning muxammaslari bilan boyidi. Bu davrda muxammas janrida qalam tebratishdagi faollik yanada oshdi, devonlardan alohida bo'lim sifatida o'rin egallay boshladi. Shu bilan birga muxammasning mavzu ko'lemi kengaya bordi. Porloq istiqboliga bo'lgan ishonch, zamonada bir o'zgarish bo'lishi muqarrarligi muxammaslarda o'z aksini topdi.

Misol tarzida Ubaydulla Zavqiyning "Ajab ermas"radifli muxammasdan quyidagi parchani olib ko'raylik:

*O'tub bir qarn, aqronim, jahon obod ko'rgaysiz,
Jahon ahlini zolim haddidin ozod ko'rgaysiz,
Giriftori alam ermas, hammani shod ko'rgaysiz,
Qarigan chog'da Zavqiy bir shabob o'lsa ajab ermas. [7]*

XIX-XX asr boshlarida muxammasning "Ta'bi xud", taxmis shakli bilan birga yangi-yangi ko'rinishlari ham paydo bo'ldi.

O'zbek adabiyotining yirik vakili Muqimiy ijodida taxmis bilan birga maktub muxammaslar ham mavjud. Uning Moskvada, jiyani R. Do'smatovga yozga xati muxammas shaklidir.

*Pur ziyo chashmim ko'rib, nogoh ra'no surating,
Berdi Mahzun ko'nglima farhad mujallo surating,
Aqcha birlan xatlaring tegdi, na tanho surating,*

*Yetdi o'n uch so'm birla xushtarh zebo surating,
Deb yubormishsan: - Muqimiy intizorim bor edi.[7]*

1840-1919-yillarda yashab ijod etgan shoira Hakima esa muxammasdan tarjimayi holining ayrim momentlarini aks ettirish maqsadida foydalanadi. Mana, shoiraning avtobiografik – muxammasidan bir parcha:

*...Alardan ko'rmadim mehru vafo dunyoda bir kun ham,
O'lib ketdi o'g'il-qizlar, farog'at ko'rmadi diydami,
Seni farzand debon mehru muhabbat ayladim bu dam,
Salomat bo'l qizim, dunyoda ko'rma zarra kulfat, g'am,
Budir mendin vasiyat ham duo, ey oqilu hushyor.[8]*

Shoirilar ijodida marsiya-muxammaslar ham uchrab turadi. Jumladan, shoira Mutribaning umr yo'ldoshi vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyasi muxammas shaklidir:

*Shod bo'lmay bul jahondin ming alam ko'rgan boshim,
Zor yig'lab, hasratu armon bilan to'lgan boshim,
Har zamon yuz ming baloga muftalo bo'lgan boshim,
Marsiya aytib, yozib, g'am birla ko'milgan boshim,
O'lmagimda har kuni yuz ming rizo bergan boshim.[8]*

O'zbek mumtoz adabiyotidagi muxammaslar hajmi jihatidan xilma-xildir. Ularning eng kichigi uch band (Uvaysiying "Tahsin" radifli) va eng kattasi 33 band (Turduning Subhonqulixon to'g'risidagi hajviyasi) iboratdir.

Ana shu tariqa o'zbek mumtoz adabiyotida muxammas katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Mumtoz poeziyadan yetakchi janr sifatida o'rin egallagan muxammas yangi o'zbek adabiyoti vakillari ijodida ham chuqur joy oldi. Ular talqinida yangi xususiyatlar bilan boyib bordi.

Shuni aytib o'tish kerakki, she'riyatning bu janri endi faqat lirik yo satirik xarakterda bo'lmay, balki ularda vatanimizning keng va bepoyon yerlari, go'zal manzaralari, ajoyib tabiati, xalqimizning farovon turmushi, baxtiyor hayotining dilbar lavhalari madh etiladi.

Muxammas bu davrda faqat mavzu jihatidagina emas, balki shakl jihatdan ham o'zgarishga yuz tutdi. Bu shoirilar ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'tashnafas shoir G'afur G'ulom ijod xazinasidan ham muxammaslarga anchagina o'rin berilgan. Shoir ularning ko'pchiligida erkin yo'l tutgan, ya'ni qofiyalanish tartibiga rioya qilmagan. Masalan, "Bog'" muxammasida shoir vazn, ritm, qofiyalarning ohangdoshligiga to'liq rioya qilgan. Ma'lumki, muxammas birinchi band a-a-a-a-a, qolgan bandlar esa a-a-a-a-b va hokazo tarzda qofiyalanishi kerak. Ammo G'afur G'ulom bu tartibdan chekinib, har bir band oxirida "qolg'aymi men" radifini takrorlaydi:

*Bir Vatanning o'g'limenkim, har taraf gul-lola bog',
Qalb ko'ziday eng qorong'u kechada porlar chirog',
Har yigit mag'ruru, har qiz ko'kragi qo'sh cho'qqi tog',
Suv desang sharbat oqar, iqlim qaymoqli yog',
O'z-o'zini maqtaganda maqtamay qolg'aymi men.[11]*

Shoirning "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak" she'ri ham muxammas shaklidir. Bunda ham shoir yuqoridagi usulni qo'llaydi. Har bir band oxirida "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak" misrasini takrorlab keltiradiki, bu misra asar g'oyasini ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qiladi:

*Bog'imiz husnida xazon ofati,
Ko'klam eli bilan chelak otgusi,
Bu xo'rlik, haqorat, alam kulfati,
Jahannam qa'riga borib botgusi,
Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak.*

Demak, qofiyalanish tartbi a-b-a-b-d tarzidir.

O'zbek xalqining sevimli shoiri Hanid Olimjon ijodida muxammas alohida ahamiyat kasb etdi. Shoir "Qo'lingga qurol ol!" nomli jangovor she'rida aruz vazniga erkin vazni payvand etdi. Unda qofiyalanish tartibi quyidagichadir: a-a-a-b-b, d-d-d-b-b va hokazo. Har bir band oxirida "Qo'lingga qurol ol!" misrasi takrorlanib keladi.

*Yursa agar tomirda qoning,
Aziz bo'lsa bir parcha noning,
Kerak bo'lsa nomus va vijdoning,
Bo'lsang yigit, bo'lsang hamki chol:
Qo'lingga qurol ol!*

LITERARY CRITICISM

Muxammas keksa g'azalxon shoirlar Habibiy, Charxiy, Chustiy, Kamtar, S.Abdulla, Sh.Nurxon kabilar ijodida bir talay.

Shoir Habibiy devonidan 65 muxammas o'rin olgan bo'lib, ular orasida Navoiy, Fuzuliy kabi shoirlar g'azallariga bog'langan muxammaslar ham anchagina. Ular mavzu jihatdan xilma-xildir.

O'zbekiston xalq shoiri S.Abdulla ijodida muxammasning yangi sayohatnoma muxammas shaklini ko'ramiz. Unda shoir muxammasning barcha qonun-qoidalariga to'liq amal qilsiha erishgan. She'r "Farg'ona-Hamzaobod" muxammasi deb nomlanadi. Mana, she'rdan bir parcha:

*Tuzab guldastalar el bog'idan ustozga eltarmen,
Ko'ngillar torini tori uzilgan sozga eltarmen,
Baland avjim, qanoti singan u shaxbozga eltarmen,
Elimning hurmati ul to'abad e'zozga eltarmen,
Bahor ayyomi, Sobir, Hamzaoboddan qo'shiq aytib.*

O'zbek adabiyotida g'azalchilik rivojiga barakali hissa qo'shgan shoir Erkin Vohidov muxammaslari ham o'zining jozibadorligi, musiqiyliги bilan kishi diqqatini o'ziga tortadi. Shoir muxammasning taxmis turida ham ancha muvaffaqiyatli ijod etdi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, o'zbek shoirlarining mumtoz ijodkorlar g'azallariga bog'langan muxammaslarida Sharq xalqlarining boy madaniy merosga, zabardast, mashhur qalam sohiblariga cheksiz hurmati, ehtiromi o'zining yorqin ifodasini topadi.

Jumladan, Erkin Vohidov Navoiy, Fuzuliy, Bobur g'azallariga bog'langan muxammaslari fikr dalili bo'la oladi. Shoir Navoiy g'azaliga bog'langan quyidagi muxammasida buyuk nutafakkir baytlariga mos misralarni topib qo'llagan, unda bayon etilgan g'oyani ijodiy rivojlantirgan:

*Nola-yu afg'oning, Erkin, dilbaringga yetmadi,
Yetsa ham yo bemehr yor zarra parvo etmadi,
Bitdi ko'p zahming va lekin ishq zahmi bitmadi,
Ey Navoiy, ishq agar ko'nglingni majruh etmadi,
Bas, nedinkim qon kelur og'zingdin afg'on aylagach.*

Shoir Toshpo'lat Hamid muxammaslarida ham mumtoz shakl saqlanadi. Ammo ular mavzu jihatdan rang-barangdir. Shoir muxammaslarida diyorimizning go'zal tabiat manzaralari, xalqimiz kishilarining halol mehnati va baxtli, sof va samimiy sevgisi tarannum etiladi. Toshpo'lat Hamidning "Bahor" muxammasi ham shular jumlasidandir:

*Qir yashil, qishloq yashil, tog'lar zilol fasli bahor,
Bo'y cho'zar ko'rgach quyoshni, navnihol fasli bahor,
To'lin oyni eslatur sohibjamol fasli bahor,
Gullar ichra sarsari kezgay hayol faski bahor,
May quyay, yorim, ichaylik, tog'da lola jomida.*

Xulosa. Demak, mumtoz adabiyotda lirikaning yetakchi janrlaridan biri hisoblangan muxammas janri yangi o'zbek adabiyotida ham davom etib kelmoqda.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

I. Muxammas XV-XVII asrlarda shakllanib, shoirlarning ijodiy musobaqasida rivojlanib borgan.

II. A. Navoiy, Mashrab, Uvaysiy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy kabi shoirlarning muxammaslarida ishq-muhabbat zamonadan norozilik, shikoyat motivlari aks ettirilgan bo'lsa, Turdi, Maxmur, Zavqiy kabi shoirlar muxammaslarida hajviy yo'nalishning ustunligini ko'ramiz.

III. Yuqoridagilarga suyanib mumtoz poeziyadagi muxammaslarni quyidagi mavzularga ajratish mumkin:

1. Ishq-muhabbat, sevgi mavzusidagi.
2. Zamondan norozilik, shikoyat va xarakteridagi muxammaslar.
3. Hajviy muxammaslar.
4. O'zbek adabiyotida ko'pchilik hollarda muxammasning janr talablariga rioya qilingan bo'lsa, ayrim hollarda bunga amal qilinmagan, ya'ni erkin yo'l tutilgan.
5. Yangi o'zbek adabiyotida muxammas ham shakliy, ham mavzu jihatdan o'zgarishlarga yuz tutgan.

ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А. Ўзбек адабиёти тарихи, III Китоб "Ўқитувчи" наشريёти, Тошкент-1967.
2. Муқимий. Танланган асарлар. "Ўқитувчи" наشريёти, Тошкент, 1973.
3. Қаямов Махмур. Ўз. ФА наشريёти, Тошкент, 1956.

LITERARY CRITICISM

4. Мужрим Обид. Танланган асарлар, Тошкент, 1960.
5. Алишер Навоий. Асарлар, 4-том, 385-бет.
6. Турди. Танланган асарлар, “Фан” нашриёти, Тош. 1951.
7. Муқимий. Танланган асарлар, “Ўқитувчи” нашриёти; Тошкент, 1973.
8. Ўзбек адабиёти, V том, 2-китоб, 15-бет.
9. Ўзбек адабиёти, V том, 2-китоб, 15-бет.
10. Ўзбек адабиёти, V том, 2-китоб, 307-308-бет.
11. Ғулом Ғ., Асарлар, 10 томлик, II том, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 1970.
12. Юсупова Д. Аруз вази қоидалари ва мумтозпоетикаасослари. Т., 2018.
13. Каримов О. Мумтозшеърятжанрлари. – Наманган, 2015.
14. Адабиётшунослик лугати / Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. – Тошкент: Академнашр, 2013.